

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQI RIVOJLANISHIDA
RANG IFODALOVCHI LEKSEMALARNING ROLI**

Gabbarova Gulnoza Shuxratovna

Farg'ona tumani 22-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Anotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning nutqini o'stirish uchun ularga psixologik yondasha olishlari uchun mo'jallangan. Bunda bolalar nutqini o'z vaqtida va to'g'ri rivojlantirish shaxsni shakllantirishning zaruriy shartlaridan biridir. O'quvchilar nutqining ekspressivligini rivojlantirish o'quvchiga qator kommunikativ vaziyatlarni ijobiy hal etishda yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvi real olam manzarasi haqidagi tasavvurlarining kengayib faollashuvidan boshlanadi.

Kalit so'zlar: lisoniy, kommunikativ, ekspressiv, psixofiziologik, lingvorang.

Abstract. This article is intended for primary school teachers to have a psychological approach to students to develop their speech. In this case, timely and correct development of children's speech is one of the necessary conditions for personality formation. Developing the expressiveness of students' speech helps the student to positively solve a number of communicative situations. The socialization of elementary school students begins with the expanded activation of their imagination about the real world scene.

Key words: linguistic, communicative, expressive, psychophysiological, linguistic

Аннотация. Данная статья предназначена учителям начальных классов для психологического подхода к учащимся для развития их речи. При этом своевременное и правильное развитие речи детей является одним из необходимых условий формирования личности. Развитие выразительности речи учащихся помогает учащемуся положительно разрешить ряд коммуникативных ситуаций. Социализация учащихся начальной школы начинается с расширенной активации их воображения о реальном мире.

Ключевые слова: лингвистический, коммуникативный, экспрессивный, психофизиологический, лингвистический.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ongida rangli olam manzarasini shakllantirishda asosan ularning psixologik rivojlanish xususiyatlariga, jumladan, ulardagi diqqat taqsimlanishining mavjudligiga, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining bir paytning o'zida ikki yoki undan ortiq ob'yektlarga diqqatini taqsimlay olishlariga ayniqsa, tabiat manzarasini tasvirlash yoki rasmlarni bo'yashda e'tibor qaratiladi.

Kichik yoshdagi bolalardagi diqqatning taqsimlanishini kuzatish uchun bir vaqtning o'zida bitta sinfda o'qiydigan bolalarga "To'lqinlar" deb nomlangan manzarali rasm ko'rsatilganda birorta ham o'quvchi osmonning rangiga e'tibor qilmadi. Ular to'lqinlarning o'zini va rangini payqadilar. O'quvchilar rasmni ko'rayotganda to'lqinlarning harakatlariga ham umuman e'tibor qaratmadilar. O'quvchilar orasidan faqat bittagina o'quvchi bulutlar orasidan asta-sekin chiqib

kelayotgan quyoshga e'tibor berdi. Shu jarayonda o'qituvchi tomonidan taklif qilingan: dengiz, shamol, to'lqinlar, osmon, quyosh kabi so'zlar lug'ati yordamida (rejaning bir turi) rasm yoki tabiat hodisasini tasvirlashda o'quvchilarning e'tibor doirasini kengaytirishga yordam beradi.

Ko'pincha tushunarsiz narsalar bolalar uchun judayam ahamiyatli bo'ladi. Bunday "tushunarsiz" narsalar bolalar diqqatini kuchaytiradi, unda qiziqish uyg'otadi, manzaradagi ma'noni izlashga majbur qiladi. Eshitish orqali so'zlar nimani anglatishini bilib oladi va buning uchun eslab qolgan narsaning to'liq tushunarsizligiga qaramay beixtiyor, sezmaganda eslab qoladi. Xotira bolalarga nutq o'zlashtirishida asosiy rol o'ynaydi.¹ Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognisiya jarayoni uchun olam rangli manzarasini shakllanishi muhim hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun boshlang'ich ta'lim yetakchi faoliyatga aylanadi. Bu jaryonda bolalarning nutqiy faoliyati – nutqni idrok etish, so'zlash, yozish, o'qish-o'rganish, tarbiyaviy faoliyat vositasi ro'lini bajaradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvi real olam manzarasi haqidagi tasavvurlarining kengayib faollashuvidan boshlanadi.

Psixologik nuqtai-nazardan qarasa, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun psixologik ta'lim holati ularning asosiy o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlarni yoki muvaffaqiyatsizliklarni boshdan kechirish jarayoni bilan tavsiflanadi. Bunda o'quvchilar o'zaro muloqotga kirishishda so'z boyligiga va nutqning ifodaliligiga hissa qo'shadigan, ya'ni rang ifodalovchi leksik birliklarga ega bo'lishi kerak.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga olam rangli-lisoniy manzarasi bilan tanishtirishda ularning psixofiziologik xususiyatlari hamda xotirasining o'ziga xosligini hisobga olish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotirasi va diqqati yaxshi shakllanishni boshlaydi. Bunday jadal rivojlanish eng avvalo mexanik xotiraga tegishli bo'lib, xotiraning bu turi o'quvchilarda maktab hayotining dastlabki, uch-to'rt yilida juda tez rivojlanadi. Bu o'rinda mantiqiy xotiraning bilvosita sust rivojlanishi kuzatiladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga rang ifodalovchi leksemalarni o'rgatishda ko'rish, eshitish va bolalarning kommunikativ idrokiga (nutq apparatining muvofiqlashtiruvchi faoliyati) tayanib ish ko'rish lozim. Buning natijasida o'quvchilar rang ifodalovchi leksik birliklarni yaxshiroq o'zlashtiradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirish juda muhim. Bu jarayonda bolalar uchun oziq-ovqat, tabiat va o'simliklar dunyosidagi hamroh ranglar to'g'risidagi tasavvurlarning borligi muhim ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavurning individual va tipologik xususiyatga egaligi esa ko'proq o'quvchining xotirasi, idrok va tafakkuri bilan belgilanadi hamda ularga bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumiy rivojlanish jarayonida ularning tasavvurlari rivojlanib

¹ Слобин

ham o'zgarib boradi: dastlab noaniq va tushunarsiz bo'lgan tasavvurlar keyinchalik aniq, tushunarli bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiga xos xususiyatlar ularning nutqini rivojlantirish va ona tilini o'zlashtirish jarayonida namoyon bo'ladi. Ilk bosqichda nutq o'quvchilar uchun ixtiyoriy harakatlar doirasiga kirib, keyinchalik u ta'lim jarayonida o'quvchilarda vaziyatlarga bog'liq bo'lgan shakllangan va tashkiliy nutqqa o'z o'rnini bo'shatib beradi. 1) Kichik yoshdagi o'quvchilar nutqi asta-sekin rivojlanib, ularda nutqning umumlashgan va mavhum xarakterlari aniqlashib rivojlanib boradi. 2) Boshlang'ich sinfnining dastlabki davridan boshlab o'quvchilar nutqiy faoliyatning ikkita yangi turini – o'qish va yozishni o'zlashtiradi va ularga javob beruvchi miya markazlari faol harakatga keltiriladi. 3) Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktab davrining ilk kunlaridan boshlab, yozma nutq, og'zaki nutq va adabiy tilning boyligi bilan tanishtirib boriladi. 4) til normasi va nutq madaniyati tushunchasi kiritiladi. 5) O'quvchilar uchun maktab o'quvchilarining o'zlari va boshqa odamlarning nutqini hamda darsliklardan badiiy nutq namunalari kuzatish, tahlil qilish, nazariy jihatdan umumlashtirish ob'yektiga aylanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan nutqni rivojlantirish ishlarini tashkillashda ularning rang ifodalovchi leksik birliklarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va hissiy idrokini bilish talab qilinadi. Bu yoshdagi o'quvchilar nafaqat quvonch, g'azab, zavq, hayrat, qo'rquv, qayg'uni his qilishni, balki boshqa atrofdagi odamlar ularni qanday ifodalashini, ya'ni nutq yordamida bu his-tuyg'ularni ifodalashni o'rganishlari kerak. O'quvchi shaxsiga his-tuyg'ular yozma nutqning sintaktik tuzilishida ifodalanishi qiyinchilik tug'dirishi mumkinligini ularni ifodalash og'zaki so'zlashuv uslubida qulay ekanligini matnlar yordamida tushuntirish mumkin. O'quvchilar asta-sekin emosional-ekspressiv bo'yoqdorlikka ega leksik birliklarni o'zlashtirish orqali nutq yo'nalishiga mos nutq mazmunini ishlab chiqib, muloqotga kirishishni boshlaydi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining bir necha muhim shartlari bo'lib, bu vazifalar xilma-xildir. Bunda bolalar nafaqat mazmunli o'qish, yozish va gapirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, balki nutqi turli rang belgilarini ifodalovchi leksik birliklar bilan boyitilishi zarur. Bu esa o'z navbatida bolalarning olam rangli manzarasini boyitib, borliqdagi ranglarni o'z tasavvuri va nutqiga ko'chirishga qiziqish uyg'otadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning olam ranglarini bilishga va o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari badiiy matnlardagi epitetlarni anglash, turli rasmlarni bo'yash va kattalar bilan bo'lgan o'zaro muloqotda namoyon bo'lib boradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kichik yoshdagi o'quvchining nutqini o'z vaqtida rivojlantirish, uni nutq madaniyati me'yorlari bilan tanishtirish, nutq ekspressivligini muntazam shakllantirib borish o'quvchilarning hissiy-irodaviy, intellektual jihatdan rivojlantirib, ularning umumiy rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqini rivojlantirish ularga olamni bilishga va uning turli manzaralari bilan birga lisoniy-rangli manzarasini

shakllanishiga ko‘maklashadi. Shunga bog‘liq ravishda bilish jarayonining yoshga bog‘liq xususiyatlari boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kommunikativ rivojlanishini belgilaydi. Zero, “...lisoniy ong – kognitiv ong bilan chambarchas bog‘liq, zero, ularning har ikkalasi ham voqelikni bilish jarayonidir va bu jarayonning mahsuli – bilimdir. (Kognitiv atamasining mazmuni ham inglizcha “*cognitive – bilishga oid*” so‘zi bilan bog‘liq: “cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq”, “cognition – bilish”). Shuning bilan birgalikda, bu ikki turdagi ong shaxs faoliyati jarayonida shakllanishini unutmazlik lozim.² Bizning tadqiqotning vazifasi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ongida va nutqida olamning rangli manzarasini nutq madaniyatining ko‘rsatkichlaridan biri sifatida bolalikdan shakllantirib butun maktab davrida davom ettirishdir.

Bolalarda nutqni o‘z vaqtida va to‘g‘ri rivojlantirish shaxsni shakllantirishning zaruriy shartlaridan biridir. O‘quvchilar nutqining ekspressivligini rivojlantirish o‘quvchiga qator kommunikativ vaziyatlarni ijobiy hal etishda yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida ularda qanday kommunikativ madaniyatni shakllantiradi. Shaxs rivojlanish strukturasi esa intellektual va hissiy rivojlanishni shaxs madaniyati shakllanishining asosiy takribiy qism sifatida qaraladi. O‘quvchilar muloqot jarayonida ifodali nutqqa murojaat qilish uchun tilning so‘z yasash hamda ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlarni qo‘llash kabi turli imkoniyatlaridan foydalanishni ona tili ta‘limi jarayonida o‘zlashtirib boradilar.

Ifodali nutq muloqot vaqtida o‘quvchi-tinglovchining chalg‘ish darajasini pasaytirgan holda lozim darajada kuchli ta‘sir qilib, uning diqqat-e‘tiborini tortishi mumkin. Bunday ifodali nutq esa, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari va o‘qituvchi o‘rtasida muvaffaqiyatli muloqot vaziyatini yaratishga qodirdir. Ta‘lim sharoitida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizlik o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ahloqiy rivojlanishi bilan ham chambarchas bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini o‘rgatish jarayonida nutq turlarini va zamonaviy til me‘yorlariga hamda nutq odobiga rioya etishni o‘rgatish orqali umumiy kommunikativ madaniyat singdirib boriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini asta-sekin o‘zlashtirib borishi o‘quvchilar nutqini rivojlantirishning zaruriy komponenti hisoblanadi. Ayni paytda maktabdan boshlab yuqori nutq madaniyatini o‘zlashtirish boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga ta‘lim jarayonida o‘qituvchilar va tengdoshlari bilan muvaffaqiyatli kommunikativ aloqaga kirishish imkonini beradi.

Ko‘p hollarda bolalar o‘zlari qo‘llagan so‘z ma‘nolarini qanchalik muhimligini tushunmaydilar. Masalan rang bildiruvchi leksik birliklarning ma‘nosini ifodalayotgan rang bilan ma‘no jihatdan mos yoki mos emasligini ba‘zan ajratmaydilar. Ma‘lum fikrni ifodalashda bolalar tilda avvaldan mavjud so‘z yasash modellari bilan birga okkozinal so‘z yasash usulini ham qo‘llaydilar. Masalan: kir pushti, pum pushti, olov yashil, yulduzrang.

² Акбарова З.А. Олам лисоний манзарасининг шаклланишида когнитив ўзига хослик. Филол.фан.докт..дис.- Фарғона, 2021.

Ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirgan rang ifodalovchi leksemalar ular borliqda, ya'ni tabiatda ko'rayotgan ranglariga nisbatan so'z zahirasida ranglarini ifodalovchi leksik birliklar yetarli emas. Shunga ko'ra bolalar o'zlariga qulay tarzda rang ifodalashga harakat qiladilar. Bu boradagi muammoli masalalarni o'rganar ekanmiz aynan bolalar nutqida so'z yasash jarayonlarida uchraydigan turli o'ziga xosliklarda psixolingvistik omillarning ham o'rni borligi kuzatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sodirzoda, M. M. (2021). TO INCULCATE NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ETIQUETTE LESSONS. *Conferencea*, 31-32.
2. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). OBRAZLAR TALQINIDA LINGVISTIK IMKONIYATLAR. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 91-95.
3. Sodirzoda, M. M. (2021). Ways to cultivate the creative thinking of beginners in the classroom through information and communication technologies. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 955-958.
4. Sodirzoda, M. M. (2021). Techniques of using folk proverbs in the cultivation of oral speech of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 481-484.
5. Jabborova, M. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Экономика и социум*, (6-1), 129-132.
6. Jabborova, M. (2022). BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASH TIZIMIDA MALAKAVIY AMALIYOTNING ROLI. *Scientific progress*, 3(4), 167-173.
7. Kodiraliyevna, J. M. (2022). TARBIYACHI KASBINING MA'NAVIY AXLOQIY NEGIZLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 64-70.
8. Zhabborova, M. R. K. (2021). Мактабгача таълим соҳаси талабаларида бошқарувчанлик қобилиятларини ривожлантириш. *Молодой ученый*, (17), 394-395.
9. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 326-329.
10. Oljayevna, O., & Shavkatovna, S. (2020). The Development of Logical Thinking of Primary School Students in Mathematics. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(2), 235-239.
11. Shavkatovna, S. R. N. (2021). METHODOICAL SUPPORT OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Conferencea*, 74-76.

12. Shavkatovna, S. R. (2021). DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Conferencea*, 97-102.
13. Vasiljonov, A. (2022). BASIC THEORETICAL PRINCIPLES OF CORPUS LINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(02), 173-175.
14. Джалолова, М., Рахманова, Э. Ю., & Косимова, Х. Н. (2021). ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Scientific progress*, 1(6), 102-106.
15. Косимова, Х. Н. (2021). КИТОБХОНЛИК КЎНИКМАСИНИ ШАКИЛЛАНТИРИШДА ОИЛАГА ПЕДАГОГИК ТАВСИЯЛАР БЕРИШ ТИЗИМИ. *Scientific progress*, 1(6), 107-110.
16. Kasimova, K. N. (2022). The role of reading culture in increasing the effectiveness of education and upbringing. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(2), 17-24.
17. Ismoilov, I., & Qosimova, X. (2022). OILADA ERKIN FUQARO SHAHSI VA BARKAMOL AVLODNING SHAKLLANISHI. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 232-238.
18. Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemotechniques in Teaching Younger Schoolchildren. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 446-450.
19. Usmanova, O. S. (2022). National curriculum and new generation mathematics textbook. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(2), 11-16.
20. Ботирова, Н. Д. (2019). РАЗВИТИЮ ПРОДУКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. *Гуманитарный трактат*, (61), 4-6.
21. Ботирова, Н. (2020). Обучающие возможности тестовых технологий. *Профессиональное образование и общество*, (3), 68-71.
22. Ботирова, Н. Д. РАЗВИТИЮ ПРОДУКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ DEVELOPMENT OF PRODUCTIVE THINKING OF YOUNGER SCHOOLBOYS. *Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 4.*
23. Ботирова, Н. Д., & Алимджонова, М. Ю. (2022). БЎЛАЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ЭВРИСТИК ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ ОМИЛЛАРИ. *Scientific progress*, 3(4), 519-524.
24. Alimjanova, M. (2020). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMATION OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 914-917.
25. Alimjonova, M. Y. (2021). The role of the national values in the history of pedagogical education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1040-1044.
26. Alimjanova, M. (2021). ABOUT GENDER STEREOTYPES. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(06), 72-76.

27. Kalandarovna, Y. L. (2022). IDENTIFICATION AND EDUCATION OF GIFTED CHILDREN. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10)*, 42-47.
28. Юлдашева, Д. М., Асқарова, Д., & Зоҳидова, М. (2021). Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 926-931.
29. Askarova, D. I. (2022). THE ROLE OF FOLK PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 89-96.
30. Askarova, D. I., & Jabborova, M. K. (2022). THE INTRODUCTION OF GENDER ISSUES IN PRESCHOOL EDUCATION ON THE EXAMPLE OF FOLK PEDAGOGY. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(05), 81-87.
31. Karimov, U. U. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of the Formation of the Social Environment in the Family. *Oriental Journal of Social Sciences*, 37-40.
32. Rahmonov, U., Ergashev, A., Nazhmetdinova, M., & Usmonova, S. (2021, November). IN THE FORMATION OF THE SOCIO-SPIRITUAL THINKING OF YOUNG PEOPLE IN THE MUSICAL ART OF THE GREAT SCHOLARS OF THE EASTERN RENAISSANCE POSITION HELD. In *Archive of Conferences* (pp. 36-39).
33. Karimovich, U. R., Mamasodikovna, N. M., & Abdullaevich, E. A. (2021). The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 47-49.
34. Rahmonov, U., Ergashev, A., Atabaeva, S., & Dilfuzakhon, S. Y. (2021, December). THE ROLE OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE PENETRATION OF POP MUSIC IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 51-53).
35. Rahmonov, U., Ergashev, A., Atabaeva, S., & Dilfuzakhon, S. Y. (2021, December). THE ROLE OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE PENETRATION OF POP MUSIC IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 51-53).
36. Ulugbek, R. (2021, January). AN ANALYSIS OF WORDS WHOSE EMOTIONAL MEANING CHANGES IN MODERN ENGLISH LINGUISTICS. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 131-136).
37. Kuchboev, A. E., Najmidinov, E. K., Mukhamediev, M. A., Karimova, R. R., & Yildiz, K. (2021). Morphological and ecological features of some nematodes of the genus *Rhabdochona* in marinka obtained from Fergana Valley, Uzbekistan. *Journal of Parasitic Diseases*, 45(4), 1084-1089.
38. Нажмиддинов, Э. Х., Кучбоев, А. Э., Мухаммадиев, М. А., & Соатов, Б. Б. (2021). Эколого-морфологические характеристики нематод рода

- Rhabdochona-паразитов обыкновенной маринки. *Теория и практика борьбы с паразитарными болезнями*, (22), 387-393.
39. Юлдашев, Э., & Нажмиддинов, Э. (2013). БРАКОНИДЫ (Hymenoptera, Braconidae) РОДА *ROGAS* NEES ФАУНЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ. In *Биоразнообразие и рациональное использование природных ресурсов* (pp. 134-136).
 40. Azhar, M. A. B., Hassan, W., & Rahim, U. (2012, October). PID control behavior and sensor filtering for a self balancing personal vehicle. In *2012 International Conference of Robotics and Artificial Intelligence* (pp. 7-10). IEEE.
 41. Mohinur, D., & Rahimjon, U. (2022). A STUDY OF MEMORY PROCESSES AND THEIR DEVELOPMENT IN PRESCHOOL. *Uzbek Scholar Journal*, 5, 62-65.
 42. Rahim, U. (2021, May). SOCIAL FACTORS OF THE INTERDEPENDENCE OF MENTAL AND PHYSICAL ACTIVITY. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 6-7).
 43. Iqboljon, S. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUV JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(20), 137-140.
 44. Мирзабоев, Й. А. (2022). ТУР ЎЗГАРИШ ЧИЗИҚЛАРИ УЧТА БЎЛГАН, ГИПЕРБОЛИК ҚИСМЛАРИНИНГ ҲАММАСИ ХАРАКТЕРИСТИК УЧБУРЧАКЛАРДАН ИБОРАТ БЎЛГАН БЕШБУРЧАКЛИ СОҲАДА УЧИНЧИ ТАРТИБЛИ КЎРИНИШДАГИ ПАРАБОЛИК-ГИПЕРБОЛИК ТЕНГЛАМА УЧУН БИТТА ЧЕГАРАВИЙ МАСАЛА ҲАҚИДА. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(5), 363-366.
 45. Расулов, М. Ф., & оглы Кодиров, Ш. М. (2021). ФАРҶОНА ВИЛОЯТИ ЗИЁРАТГОҲЛАРИ ТАРИХИДАН ЛАВҲА (Пир Сиддиқ ва “Киргил ота мозор” зиёратгоҳлари мисолида). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(8).